



“TASDIQLAYMAN”

“UMS” MChJ Ma’muriy direktori

M.R. Kamalidinov

2026-yil “16” 06

“UMS” MChJ (Mas’uliyati cheklangan jamiyat) ehtiyojlari uchun

Nukus shahri, To‘rtko‘l shossesi, 138-“A” uy manzilidagi “UMS” MChJning Nukus XKMda ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan isitish radiatorlari va qo‘l yuvgichlarni
xarid qilish bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent - 2026

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar	3
1.1 Tovar tavsifi (funksional va iste'mol xususiyatlari)	3
1.2 Tovarlarini xarid qilish maqsadi	3
1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos	3
1.4 Yangiligi haqida ma'lumot	3
2. Tovarlarining texnik xususiyatlari	3
3. Yetkazib berish talablari	3
4. Komplektlash bo'yicha talablar	4
5. Yetkazib berish miqdori, muddati va joyi bo'yicha talablar	4
6. Tovar sifatining kafolat muddati	4

1. Umumiy ma'lumotlar

Nukus shahri, To'rtko'l shossesi, 138-"A" manzili bo'yicha Nukus XKM sanuzellariga o'rnatish va almashtirish uchun isitish radiatorlari, qo'l yuvgichlarni to'plamda xarid qilish.

1.1 Tovarlar tavsifi (funksional va iste'mol xususiyatlari)

Yig'ilgan bimetall radiatorlar, to'plamda yangi: devorga o'rnatish uchun mahkamlash elementlari, quvurlarga ulash uchun o'tkazgichlar, berkitish armaturasi, shu jumladan tiqinlar, Mayevskiy klapani.

Tumbali (stol usti) sopol qo'l yuvgich, yangi, yoriqlar, tiralishlar, siniqlar va boshqa nuqsonlarsiz, oq rangda.

1.2 Tovarlarini xarid qilish maqsadi

Qulaylik va gigiyenik sharoitlarni ta'minlash uchun zarur.

1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos

Byudjet moddasi 2.3.11.2 Tijorat inventarlari/ maqsadlar

1.4 Yangiligi haqida ma'lumot

Yetkazib beriladigan Tovar yangi bo'lishi, undan belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli bo'lishi, O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlar va ushbu toifadagi tovarlarning sifatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Yetkazib beruvchi mahsulotni ishlab chiqarish uchun ishlab chiqaruvchini vakolatini tasdiqlovchi hujjat va sifat sertifikatini taqdim etishi kerak.

2. Tovarlarining texnik xususiyatlari

Isitish radiatorlari: bimetall

Oq rang

Devoriy qurilma

Alyuminiy qobiq bilan o'ralgan quvurlardan iborat po'lat o'zak

O'lchami va soni: 80x500 mm o'lchamdagi 8 ta bo'limdan iborat 6 ta blok.

Tumbali (stol usti) qo'l yuvgich:

Material: keramika

Rang: oq

O'lchami: uzunligi 600 mm, kengligi 400 mm

O'rnatish: polda

3. Yetkazib berish talablari

Yetkazib beruvchi tovarni o'z transportidan foydalangan holda yetkazib berishni ta'minlaydi. Yetkazib beruvchi kamida ikki sutka oldin Buyurtmachini tovarni yetkazib berish sanasi to'g'risida xabardor qiladi. Tovarini yetkazib berish yetkazib beruvchi tomonidan Buyurtmachining ofisigacha amalga oshiriladi. Tovarining o'ramida ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi ko'rsatilgan yorliq (stiker), shuningdek, detallarning o'lchamlari va soni haqidagi ma'lumotlarga ega markirovka bo'lishi kerak. O'ram turli xil transport turlarida tashishda, shu jumladan qayta yuklash, tushirish va saqlashda uning saqlanishini ta'minlashi kerak. Yetkazib berish va tashishning har qanday bosqichida Tovarining saqlanishi va butunligi yetkazib beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

4. Komplektlash bo'yicha talablar

Tovarning komplektatsiyasi ushbu texnik topshiriqda keltirilgan ma'lumotlarga va tavsiflarga muvofiq bo'lishi shart.

5. Mahsulotni yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyiga oid talablar

Xarid qilinadigan tovarlar soni:

- har biri 8 seksiyali 6 blokdan iborat bimetall radiatorlar, jami 48 seksiya;
- tumbali (stol usti) qo'l qo'lyuvgich 6 ta to'plam.

Tovarni Buyurtmachi bilan kelishish Toshkent sh., A.Temur shoh ko'chasi, 24-uy manzilida amalga oshiriladi. Tovarni yetkazib berish joyi: Nukus sh., To'rtko'l shossesi, 138-"A" uy. Tovarning tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra nomi, assortimenti, miqdori va sifati bo'yicha muvofiqligi tekshiriladi.

Yetkazib berish muddati 10 ish kundan oshmaydi.

6. Tovar sifatining kafolat muddati

Xarid qilinayotgan Tovarlar uchun kafolat:

- bimetall radiatorlarga -- kamida 5 yil;
- tumbali qo'lyuvgichlarga -- qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab kamida 12 oy.

Ishlab chiqilgan:

MD BEQKMB TNG
katta mutaxassisi



N.N. Polatov

Kelishilgan:

MD BEQKMB boshlig'i

MD BEQKMB TNG rahbari



R.B. Sidikov

Ye.R. Abdiganiyev